

**IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.QX.103.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BEGMATOV TOIR MUXTOROVICH

***BOMBYX MORI L.* TUT IPAK QURTINING YADRO POLIEDROZI
KASALLIGIGA QARSHI KURASHNING SELEKSION VA
PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI ILMIY ASOSLASH**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Begmatov Toir Muxtorovich

Bombyx mori L. tut ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligiga qarshi kurashning seleksion va profilaktik chora-tadbirlarini ilmiy asoslash.....3

Бегматов Тоир Мухторович

Научное обоснование селекционных и профилактических мероприятий против ядерного полиэдроза тутового шелкопряда *Bombyx mori L.*.....25

Begmatov Toir Mukhtorovich

Scientific justification of breeding and preventive measures against nuclear polyhedrosis of the silkworm *Bombyx mori L.*.....45

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**IPAKCHILIK ILMIY TADQIQOT-INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.36/30.01.2020.QX.103.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

IPAKCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

BEGMATOV TOIR MUXTOROVICH

***BOMBYX MORI L.* TUT IPAK QURTINING YADRO POLIEDROZI
KASALLIGIGA QARSHI KURASHNING SELEKSION VA
PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI ILMIY ASOSLASH**

06.02.04 – Ipakchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.J.PhD/Qx1229 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Ipakchilik ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb sahifasida (www.ziyounet.uz) hamda «Ziyounet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ismatullayeva Diloram Adilovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: Daniyarov Umirzak Tuxtamuradovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Yalg'ashev Xurshid Abdug'aniyevich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01 – raqamli ilmiy kengashning 2024 yil « 5 »
06 soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100055, Toshkent, Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy, Tel: (+99871) 2498356, faks: (+99871) 2498213, e-mail: uzniish@mail.ru Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti ma'muriy binosi, 3-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (~~No~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100055, Toshkent, Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy, IITI ARM binosi, 3-qavat, Tel: (+99871) 2498213).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 20 » 05 kuni tarqatildi.
(2024 yil « 28 » 03 dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).




B.U. Nasirillayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor


S.X. Xudjamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., (PhD) katta ilmiy xodim


S.T. Valiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, q.x.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida ipakchilik sohasini rivojlantirish hamda ipak qurtlaridan mo‘l va sifatli pilla hosili olish, ko‘p jihatdan ipak qurti kasalliklarini tarqalishini oldini olish bilan chambarchast bog‘liq. Kasalliklar tarqalishini oldini olish va sifatli pilla hosilini yetishtirishda xo‘jaliklarda boqib parvarishlanayotgan ipak qurtlaridan tayyorlanayotgan urug‘larni sifati muhim omil bo‘lib hisoblanadi. « jahonda yetishtirilayotgan pilla salmog‘i bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Xitoy Xalq Respublikasi (782 ming tonna), Hindiston (225 ming tonna) va keyingi o‘rinda O‘zbekiston (25,8 ming tonna) kabi mamlakatlar turadi»¹. Bugungi kunda pilla yetishtiruvchi ilg‘or mamlakatlarda pilla hosildorligini oshirish, yetishtirilayotgan pilla va hom ipak sifatini yaxshilash yo‘nalishida tut ipak qurti kasalliklarini molekular darajada o‘rganish hamda kasalliklarga chidamli genlarni identifikatsiya qilish borasida zamonaviy izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda jahon ipakchi-olimlari tomonidan ipak qurti kasalliklarini oldini olish va ularga qarshi kurashishning kimyoviy hamda agrotexnik usullarini ishlab chiqishda yuksak natijalarga erishib kelmoqdalar. Ipakchilik rivojlangan xorijiy davlatlar ilmiy muassasalarida ipak qurtining turli omillar ta’sirida yuzaga keladigan kasalliklarni oldini olish va oldindan tashxis qo‘yish, yetishtiriladigan sanoat pillalari tarkibida nuqsonli pillalarni kamaytirish orqali tayyorlanadigan pilla xomashyosi sifatini yaxshilashga qaratilgan uslubiyot va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, parvarishlanayotgan tut ipak qurtini sog‘lom va xo‘jalik qimmatli belgilarini yuqori darajaga yetkazishda yadro poliedrozi kasalligiga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi yillarda pilla hosildorligini oshishiga qaramay, barcha pillachilik bilan shug‘ullanayotgan davlatlar singari bizning yurtimizda ham turli kasalliklar tarqalishi natijasida 6-8 % gacha ipak qurtlari pilla o‘rash jarayonigacha yetib bormasdan nobud bo‘lmoqda. Ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligi oqibatida kelib chiqadigan iqtisodiy zararni minimallashtirish, pilla tayyorlash hajmlarini oshirish hamda yangi turli zotlar yaratib, ishlab chiqarishga joriy etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. « ...tarmoqqa to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish, keltirilishicha ilg‘or texnologiyalar, innovatsion g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar va ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish» kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni to‘laqonli ravishda bajarilishini ta’minlashda tut ipak qurtining turli infeksiyon kasalliklariga qarshi kurashning ilg‘or samarali uslublarini ishlab chiqish hamda yadro poliedrozi kasalligiga chidamli zot, tizim va duragaylarni yaratish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi

¹<https://statista.com>

to'g'risida»² gi Farmoni, 2018 yil 12 yanvardagi PQ-3472 sonli «Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 20 martdagi PQ-3616-sonli «Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon va qarorlarida hamda tarmoqqa tegishli boshqa normativ huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq hamda Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda G.A.Verbiskaya, A.I.Xaxanov, L.F.Kashkarova, M.A.Xakimova, S.Sobirov, D.A.Ismatullayeva, Ya.M.Ziyayeva va boshqalar tomonidan infeksiyon kasalliklarni epizootologiyasini o'rganish, ularga qarshi kurash, oldini olish, tut ipak qurtining hayotchanligi va pilla hosildorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shuningdek dunyo miqyosida tut ipak qurtining sariq kasalligiga chidamli populyatsiyalarini genetik-seleksiya yo'llari bilan tanlab olish, pebrina kasalligini xo'jayin va parazit munosabatlarini o'rganish, biostimulyatordan foydalanish, yangi samarali dezinfeksiya vositalarini izlab topish, tut ipak qurtining yuqumli kasalliklarga spesifik va nospesifik chidamliligini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni dunyoning bir qator yetakchi olimlari: V.A.Golovko, I.A.Kirichenko, I.V.Issi, R.Nirupama, N.Baramidze va boshqalar tomonidan olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston ipakchiligida tut ipak qurti kasalliklariga chidamli zotlar va ularga qarshi kurash usullari, vositalaridan foydalanishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlari yetarli emas. Bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, tut ipak qurtining xavfli infeksiyon kasalliklaridan bo'lgan yadro poliedrozini oldini olish choralarini, qurtlarni chidamliligini oshirish bo'yicha zamonaviy vositalarni tanlash va ularni qo'llash bo'yicha yangi usullar ishlab chiqish, yadro poliedrozi kasalligiga chidamli zotlarni tanlab olish va chidamli seleksion tizim va zotlarni yaratish ipakchilikdagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutining FA-2018-012-sonli «Tut ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligiga chidamli tizimlarni olish uchun dastlabki seleksion materialni yaratish» mavzusidagi (2018-2020 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

² PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni

Tadqiqotning maqsadi tut ipak qurtining yadro poliedrozi (sariq) kasalligini qurt parvarishlash davrida tarqalishini oldini olish maqsadida yangi vositalarni qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda an'anaviy seleksiya usuli yordamida kasallikka chidamli seleksion tizimlarni yaratishni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yadro poliedrozi kasalligiga stimulyatorlarning har xil konsentratsiyalar ta'sirini sinab ko'rish va optimal miqdorlarini aniqlash;

stimulyatorlarni tut ipak qurtining hayotchanligiga ta'sirini o'rganish;

mikroskopik tahlil o'tkazish natijasida kasallanish darajasini baholash;

stimulyatorlarni qo'llash bo'yicha usul yaratish va ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'rish;

tut ipak qurtining 2 ta seleksion tizim Liniya 27, Liniya 28 va 2 ta Ipakchi 2, Ya-120 zotlarini yadro poliedrozi (sariq) kasalligiga chidamli populyatsiyalarini tanlab olish orqali dastlabki seleksion materialni yaratish;

tanlab olingan seleksion quymalarni reproduktiv ko'rsatkichlarini aniqlash va eng yuqori ko'rsatkichlarga ega oilalarni tanlab olish;

tut ipak qurtining hayotchanligi bo'yicha tanlov ishlarini olib borish va darajalash bo'yicha baholash;

tadqiqot natijalarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida tut ipak qurtining *Bombyx mori L.* turiga mansub Liniya 27, Liniya 28 tizimlari, Ipakchi 2, Ya-120 zotlari va mahalliy, xorij sanoat duragayi hamda yadro poliedrozi (sariq) kasalligini qo'zg'atuvchisi xizmat qilgan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, tanlab olingan zotlarni yadro poliedrozi kasalligiga chidamli oilalarini va ipak qurti seleksion tizimlarining hayotchanligi shuningdek ularning biologik, mahsuldorlik va texnologik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida olib borilib, bunda «Ipak qurti kasalliklari, diagnostikasi va profilaktikasi» uslubiy qo'llanmasi, «Tut ipak qurtini oq pilla o'raydigan zotlarini parvarishlash agrotexnika qoidalari», asosida olib borildi. Ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft excel dasturi yordamida hamda «Umumqabul qilingan variatsion statistik biometriya, o'zgaruvchanlik va farqlanishining aniqliq darajasini aniqlash» usullarida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor tut ipak qurtini yadro poliedrozi kasalligiga chidamlilikni oshirish maqsadida yangi mahalliy «Hosildor» va «Omad plyus» stimulyatorlarining ta'sir mexanizmi aniqlangan;

«Hosildor» 0,05 % li stimulyatori tut ipak qurtining xorij va mahalliy duragaylar hayotchanligini nazoratga nisbatan o'rtacha 14,7 % va 11,3 % ga oshirish mumkinligi isbotlangan;

tut ipak qurtining Ipakchi 2, Ya-120 zotlari va Liniya 27, Liniya 28 seleksion tizimlarida yadro poliedrozi kasalligiga chidamli oilalar aniqlangan va ularning 6 ta inbrid avlodlari olingan;

sovuq harorat ta'sirida sariq kasalligi induksiya qilingan populyatsiyalarda hayotchanlik ko'rsatkichi F_1-F_3 avlodlarda Ipakchi 2 (79,9-70,8 %) va Ya-120 (80,0-71,9 %) zotlarida keskin pasayib, F_4-F_6 avlodlarga kelib seleksion tanlov ishlari natijasida 83,6-87,4 % va 83,0-85,1 % ga ko'tarilganligi isbotlangan;

tut ipak qurti rivojlanishining barcha davrlarida tanlash usuli orqali kasalliklarga eng chidamli oilalar aniqlangan va reyting bo'yicha baholangan;

tut ipak qurtini yadro poliedrozi kasalligiga chidamli yangi «LD-1» va «LD-2» seleksion tizimlari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tut ipak qurtining parvarishlash jarayonida yadro poliedrozi kasalligi tarqalishini oldini olish maqsadida mahalliy «Hosildor» va «Omad plyus» stimulyatorlari tadqiq etilib, ularning samarali maqbul konsentratsiyalari aniqlangan;

«Hosildor» 0,05 % stimulyator yordamida ipak qurtini hayotchanligini oshirish bilan bir qatorda pilla hosildorligini ham oshishiga erishilgan;

Respublikamizni naslli urug'chilik stansiyalari va urug'chilik korxonalarida yadro poliedrozi kasalligiga chidamli yangi tizimlardan sanoat duragaylarini yaratishda foydalanilsa, kasallikni tarqalishi oldi olinib, pilla hosildorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar zamonaviy ishlab chiqilgan uslubiyat hamda texnik vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti aprobat siya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan raqamli ma'lumotlarni statistik tahlildan o'tkazilganligi, ilmiy natijalarni yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy natijalarni davlat amaliy loyihasi doirasida bajarilganligi, dissertatsiya amaliy natijalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan dalolatnomalar asosida tasdiqlanganligi hamda ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada mahalliy zot va duragaylar hamda xorij duragaylari biologik (urug'lar jonlanishi, qurtlar hayotchanligi, navli pillalarni soni) pilla mahsuldorligi (pilla sifati va ipakchanligi) hamda texnologik (hom ipak chiqishi, pilla yigirilishi, metrik nomeri), kapalaklarning reproduktiv xususiyatlarini (normal tuxumlar soni) o'zgarishi seleksion tanlovlarni olib borish va stimulyatorlarga bog'liqligi ilmiy asosda isbotlanib, nazariy jihatdan natijalar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijasida «Tut ipak qurtining yadro poliedrozi (sariq) kasalligiga chidamliligini oshirish maqsadida mahalliy stimulyatordan foydalanish usuli» nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va ushbu stimulyatordan foydalanish ipakchilik

klasterlari, fermer xo'jaliklari hamda pillachilik bilan shug'ullanadigan barcha qurt boquvchilar parvarishlaydigan qurtlar pilla hosildorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tut ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligiga qarshi kurashning seleksion va profilaktik chora-tadbirlaridan foydalanishni yangi usulini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Tut ipak qurtining yadro poliedrozi (sariq) kasalligiga chidamliligini oshirish maqsadida mahalliy stimulyatoridan foydalanish usuli» nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va ushbu stimulyator Farg'ona viloyati «Farg'ona Pilla Naslchilik» MChJ da mahalliy Iqbol-2 x Iqbol-3 duragay qurtlarning 15 qutisida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 2-fevraldagi 1-2/57-son ma'lumotnomasi). Natijada parvarishlangan tajriba variantidagi 15 quti mahalliy duragay ipak qurtining har bir qutisidan 5,7 kg qo'shimcha pilla olinib, bir quti hisobidan 3138000 so'm iqtisodiy samaradorlik olingan, sof foyda 495800 so'mga teng bo'lib, rentabellik darajasi 18,8 % ni tashkil etgan;

ipak qurtining hayotchanligi va pilla hosilini oshirish maqsadida yangi stimulyator «Hosildor» 0,05 % Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani «Bog'iston MFY» ga qarashli kasanachi M.Turg'unov xonadonida, 7 quti horij duragay qurtlarini parvarishlashda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 2-fevraldagi 1-2/57-son ma'lumotnomasi). Natijada yetishtirilgan har bir quti hisobidan qo'shimcha 8,3 kg pilla olinib, iqtisodiy samaradorlik 3658800 so'mni, sof foyda 724100 so'mni tashkil etgan, rentabellik darajasi 24,7 % ga yetishiga erishilgan;

eng samarali deb topilgan «Hosildor» stimulyatorining 0,05 % li varianti Farg'ona viloyati «Farg'ona Pilla Naslchilik» MChJ da mahalliy Iqbol-2 x Iqbol-3 duragay qurtlarning 3 qutisida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 2-fevraldagi 1-2/57-son ma'lumotnomasi). Natijada yetishtirilgan har bir quti hisobidan qo'shimcha 6,0 kg pilla hosili olingan va iqtisodiy samaradorlik 1 quti ipak qurti hisobidan 4101784,3 so'mni, sof foyda 802219,8 so'mni tashkil etib, rentabellik darajasi 30,1 % bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 1 ta uslubiy qo'llanma, 4 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi hozirgi kundagi zaruriyati ilmiy jihatdan asoslangan, ishning o'rganilganlik darajasi, tajribalar materiallari hamda uslubiyotlari keltirilgan, shu bilan birga, dissertatsiya ishining tadqiqot ob'ekti va predmeti shakllantirilib, respublikamizda fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga qay darajada bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya tadqiqotining maqsad hamda vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobi 4 ta bo'limdan iborat bo'lib, tut ipak qurtining hosildorligiga tashqi muhit omillarining ta'siri, ipak qurti hayotchanligini oshirishda stimulyatorlarning ahamiyati, yadro poliedrozi kasalligi va unga qarshi kurash chora-tadbirlari, tut ipak qurtining kasalliklarga chidamli zotlarni seleksiyasiga oid mahalliy va horijiy izlanuvchilarning ilmiy izlanish natijalari tahlil qilingan. Mavzuga yaqin bir qancha olimlarning ilmiy natijalari o'rganilib, ipak qurtining sariq kasalligi tarqalishini oldini olishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi va kelgusida ilmiy-amaliy jixatdan samara berishi haqida xulosa berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot joyi, materiali va uslubiyotlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan joy, tajriba materiali, ob'ekti va uslubiyotlari bayon etilgan. Tajribalar Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutining "Tut ipak qurti va tut daraxti kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash" laboratoriyasida 2018-2023 yillar davomida olib borildi. Tadqiqotning ob'ekti sifatida tut ipak qurtining *Bombyx mori L.* turiga mansub Liniya 27, Liniya 28 seleksion tizimlari, Ipakchi 2, Ya-120 zotlari va mahalliy (Ipakchi 1 x Ipakchi 2), xorij (Jingsong Haoyue) sanoat duragayi hamda yadro poliedrozi (sariq) kasalligini qo'zg'atuvchisi xizmat qildi.

Dissertatsiya ishida quyidagi uslubiyotlardan foydalanildi:

yadro poliedrozi kasalligini qo'zg'atuvchisini induksiya qilish uslubiyoti;
yadro poliedrozi kasalligi qo'zg'atuvchilarini ajratib olish uslubiyoti;
tut ipak qurtining qurtlik davrida stimulyatorlarni qo'llash uslubiyoti;
tut ipak qurti va kapalaklarini mikroskopik tahlildan o'tkazish uslubiyoti;
kapalaklarni hayotchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha sog'lom oilalarni darajalash uslubiyoti.

ZOT VA DURAGAYLARNI YADRO POLIEDROZI (SARIQ) KASALLIGIGA CHIDAMLILIGINI OSHIRISH



1-rasm. Tajriba sxemasi.

Dissertatsiyaning «**Tut ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligini oldini olish maqsadida profilaktik usullarni ishlab chiqish**» deb nomlangan uchinchi bobida tut ipak qurtining hayotchanligini oshirishda va sariq kasalligini tarqalishini oldini olish uchun mahalliy “Hosildor” va “Omad plyus” stimulyatorlarining ta’siri o‘rganilgan. Tut ipak qurti tashqi muhit omillariga juda sezgir va noqulay sharoitlarga ta’sirchan hasharot bo‘lganligi sababli, qurtlarning o‘sib rivojlanishi, biologik ko‘rsatkichlari, pilla mahsuldorligi, hosildorligi va sifatli bo‘lishi tut bargiga, to‘yimlilik darajasiga, parvarishlash sharoitlariga va agrotexnik qoidalarga bog‘liq bo‘ladi. Tajribalarni olib borishda ikki xil xorij “Jingsong Haoyue” va mahalliy “Ipakchi 1 x Ipakchi 2” duragaylaridan foydalanildi. Duragaylar II yoshida 250 donadan 3 qaytarilishda variantlar shakllantirildi. Yadro poliedrozi kasalligini sun’iy yo‘l bilan qo‘zg‘atish maqsadida duragaylar IV yoshning birinchi kunida sovuq induksiya ta’sir ettirilib (18-20 soat davomida $+3+4^{\circ}\text{C}$ da sovuqxonada ushlab turish), shu yoshning 2-kunidan boshlab 1 kunda ikki mahaldan Hosildor va Omad plyus stimulyatorlaridan tayyorlangan turli konsentratsiyalar (0,01, 0,03, 0,05, 0,07 %) yordamida ishlov berilgan barglar bilan pilla o‘ragunga qadar parvarishlanib borildi.



2-rasm. Stimulyatorlar bilan barglarga ishlov berish va ipak qurtlarni parvarishlash jarayoni.

Stimulyatorlar bilan parvarishlangan xorij “Jingsong Haoyue” va mahalliy “Ipakchi 1 x Ipakchi 2” duragay qurtlarining biologik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan (2021-2023 yy.).

1-jadval


**Stimulyatorlar bilan parvarishlangan xorij “Jingsong Haoyue” va mahalliy
“Ipakchi 1 x Ipakchi 2” duragaylarining biologik ko‘rsatkichlari
(2021-2023 yy.)**

Variantlar	Xorij duragay		Mahalliy duragay	
	hayotchanlik $\bar{X} \pm S \bar{x}, \%$	kasallanish darajasi $\bar{X} \pm S \bar{x}, \%$	hayotchanlik $\bar{X} \pm S \bar{x}, \%$	kasallanish darajasi $\bar{X} \pm S \bar{x}, \%$
Hosildor 0,01 %	74,5±0,46	17,4±0,6	72,7±0,9	15,7±0,4
Pd	0,830	0,862	0,850	0,637
Hosildor 0,03 %	75,1±1,1	16,4±0,7	73,2±0,6	17,5±0,9
Pd	0,868	0,760	0,999	0,780
Hosildor 0,05 %	82,5±0,6	10,9±0,4	80,3±0,5	11,1±0,3
Pd	0,966	0,930	0,898	0,921
Hosildor 0,07 %	73,4±0,4	16,6±0,2	73,2±0,7	16,4±0,9
Pd	0,999	0,946	0,806	0,884
Hosildor 0,1 %	3,2±1,1	2,0±0,6	2,4±1,2	4,0±0,9
Pd	0,362	0,224	0,425	0,419
Omad plyus 0,01 %	74,4±0,9	16,7±0,5	67,5±1,5	23,6±0,7
Pd	0,750	0,850	0,591	0,946
Omad plyus 0,03 %	68,7±1,6	20,6±1,5	71,2±1,0	17,2±0,3
Pd	0,884	0,806	0,830	0,992
Omad plyus 0,05 %	71,2±0,6	17,5±0,5	70,6±0,9	17,5 ±1,4
Pd	0,921	0,976	0,850	0,946
Omad plyus 0,07 %	74,3±0,6	16,2±0,6	69,8± 1,3	19,5±1,1
Pd	0,930	0,884	0,921	0,930
Omad plyus 0,1 %	4,8±0,5	3,6±0,3	4,4±0,7	2,0±0,4
Pd	0,425	0,294	0,485	0,362
Qiyoslovchi (suvli)	64,2±1,1	25,2±1,6	64,0±2,0	25,5±1,2
Qiyoslovchi (oddiy)	61,7±0,9	26,6±1,3	63,5±1,2	26,5±0,9

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, Hosildor stimulyatorining turli konsentratsiyalarida parvarishlangan qurtlar hayotchanligi xorij duragayida 73,4-82,5 %, va mahalliy duragay qurtlarida 72,7-80,3 % ni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. Omad plyus stimulyatori bilan parvarishlangan ipak

qurtlarining hayotchanlik ko'rsatkichi xorij duragayida 68,7-74,4 % va mahalliy duragayda 67,5-71,2 % ligi ma'lum bo'ldi. Barglarga suv sepib boqilgan variantda esa bu ko'rsatkich xorij va mahalliy duragaylarida 64,2-64,0 % ni tashkil etdi. Qiyoslovchi (oddiy) variantida quruq barglar bilan parvarishlangan xorij va mahalliy duragaylarda hayotchanlik 67,1-65,3 % bo'lgani keltirib o'tilgan. Tajribadagi stimulyatorlarning salbiy ta'sir etish darajasi ham kuzatilgan. Bunda har ikkala Hosildor va Omad plyus stimulyatorlarining 0,1 % li variantlari bilan boqilgan xorij va mahalliy duragay qurtlarida kuchli zaxarlanish holati kuzatilib, qurtlar hayotchanligi "Hosildor" (3,2-2,4 %) va "Omada plyus" stimulyatorida (4,8-4,4 %) tushib ketgani aniqlandi.

Stimulyatorlar yordamida parvarishlangan xorij va mahalliy duragaylarni hayotchanlik ko'rsatkichlarini yanada aniqroq namoyon etish uchun quyida 1-rasmda grafik ko'rinishida keltiramiz.



3-rasm. Stimulyatorlar bilan parvarishlangan xorij va mahalliy duragay qurtlarining hayotchanligi, % (2021-2023 yy.).

1-rasmda tajribalarda olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgan "Hosildor" 0,05 % li variant bilan parvarishlangan xorij "Jingsong Haoyue" va mahalliy "Ipakchi 1 x Ipakchi 2" duragay ipak qurtlarida hayotchanlik ko'rsatkichlari 82,5-80,3 % ga teng bo'lgani aniqlandi. Boshqa variantlarimizda ham qiyoslovchiga nisbatan ijobiy ta'sir etish holatlari kuzatilgan.

Dissertatsiyaning «**Tut ipak qurtining yadro poliedrozi kasalligiga chidamli seleksion tizimlarini yaratish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida ipak qurtining eng xavfli hisoblanadigan, virusli yadro poliedrozi kasalligiga chidamli oilalarni tanlab olish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. 2018 yilda yadro poliedrozi (sariq) kasalligiga chidamli ipak qurti tizimlarini yaratish uchun dastlabki seleksion

material sifatida bir-biridan farq qiluvchi, ya'ni hayotchanligi yuqori bo'lgan, 2 ta zot (Ya-120, Ipakchi 2) va yaxshi texnologik ko'rsatkichlarga ega 2 ta seleksion tizim (Liniya 27, Liniya 28) lar tanlab olindi. Dastavval 2018 yilda tanlab olingan zot va tizimlarning oilalarini inkubatsiyaga qo'yib jonlantirib, olganimizdan so'ng oddiy usulda parvarishlash ishlari olib borildi va II-yoshida har bir oiladan 250 donadan qurtlar sanalib, variantlar shakllantirildi. IV-yoshning birinchi kunida tajribadagi qurtlarda yadro poliedrozi kasalligini qo'zg'atish maqsadida sovuq induksiya (+3+4 °C da 18-20 soat davomida sovutkichda ushlab turish) qilindi. IV-yoshning 2-kunidan boshlab, oddiy belgilangan me'yoriy agrotexnika asosida parvarishlash ishlari olib borildi. Sariq kasalligini bunday sun'iy yo'l bilan qo'zg'atish ishlari F₁ avlodlaridan boshlab, F₆ avlodlarigacha har yili IV-yoshning 1-kunida davom ettirildi. Shundan so'ng ipak qurtini barcha davrlarida (urug'larni reproduktiv ko'rsatkichlari, qurtlarni biologik ko'rsatkichlari, sog'lom kapalaklar ulushi) an'anaviy seleksiya usulidan foydalangan holda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan oilalar ichida naslli chatishtirish uchun tanlov ishlari olib borildi. Ipak qurtlarini urug'lik davrida sog'lom urug'lar soni, bir dona oiladagi urug'lar va bir dona urug'ning vazni, fiziologik nosog'lom urug'lar soni, urug'larning jonlanishiga qarab, qurtlik davrida variantlar shakllantirilgandan so'ng qurtlarning rivojlanishi, sovuq induksiyadan keyingi qurtlar hayotchanligi, normal pillalar soni, va sifatiga qarab, kapalaklik davrida esa mikroskopik tekshiruv natijalariga qarab, tanlash ishlari olib borilgan. Ushbu 2-jadvalda Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarining 6 generatsiya davomida aniqlangan o'rtacha reproduktiv va qurtlarning biologik ko'rsatkichlari keltirilgan.

2-jadval

Yadro poliedrozi kasalligini sovuq induksiya orqali qo'zg'atilishi va seleksiya tanlovi natijasida F₁-F₆ avlodlarining reproduktiv va biologik ko'rsatkichlari (2018-2023 yy.)

Zotlar Nomi	Avlodlar	Normal tuxumlar soni, dona		Quymadagi tuxumlar massasi, mg		1 dona urug'ning og'irligi, mg		Urug'larning jonlanishi, %	
		$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	C _v %
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Tajriba									
Ipakchi 2	F ₁	669±1,3	18,7	357±4,8	11,5	0,534±0,001	17,3	96,0±0,89	4,1
Pd		0,750		0,985		0,868		0,999	
Ya-120		653±2,1	12,5	319±5,2	17,7	0,489±0,001	15,2	97,0±1,12	5,4
Pd		0,637		0,966		0,985		0,983	
Ipakchi 2	F ₂	640±1,9	16,4	337±1,1	21,7	0,542±0,002	9,3	93,7±0,01	6,4
Pd		0,985		0,966		0,999		0,780	
Ya-120		627±2,2	13,4	305±1,6	12,6	0,520±0,003	11,2	90,2±0,04	7,3
Pd		0,850		0,716		0,850		0,540	
Ipakchi 2	F ₃	622±1,8	15,3	320±6,5	12,3	0,555±0,002	14,6	90,0±0,88	4,6


2-jadvalni davomi

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Pd		0,766		0,679		0,992		0,921	
Ya-120		613±1,5	21,2	290±4,4	13,1	0,523±0,001	13,4	91,9±0,09	5,9
Pd		0,910		0,957		0,993		0,850	
Ipakchi 2	F ₄	615±5,6	17,2	313±2,1	12,6	0,510±0,002	15,3	88,9±0,5	7,4
Pd		0,921		0,991		0,999		0,976	
Ya-120		607±11	20,3	307±2,3	14,3	0,506±0,005	13,5	89,3±0,9	3,1
Pd		0,750		0,591		0,973		0,750	
Ipakchi 2	F ₅	634±4,4	20,1	330±3,7	13,1	0,521±0,005	11,0	90,4±0,4	8,7
Pd		0,993		0,996		0,921		0,679	
Ya-120		620±9,8	14,1	322±4,1	10,4	0,520±0,007	10,7	91,1±1,1	7,2
Pd		0,930		0,990		0,910		0,884	
Ipakchi 2	F ₆	662±3,9	13,3	365±6,3	9,6	0,551±0,008	18,9	92,1±0,3	4,3
Pd		0,999		0,981		0,993		0,591	
Ya-120		657±7,9	17,2	352±5,3	13,2	0,537±0,006	17,6	92,7±1,7	5,8
Pd		0,981		0,992		0,999		0,725	
Qiyoslovchi									
Ipakchi 2	F ₆	699±5,4	12,1	410±2,1	9,9	0,587±0,004	14,1	96,4±0,8	4,8
Ya-120	F ₆	669±4,9	9,1	357±2,1	11,8	0,534±0,007	13,2	95,7±0,9	5,1

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, 6 yillik (F₁-F₆) tadqiqotlar natijasida, har avlodda yadro poliedrozi kasalligini qo‘zg‘atish natijasida normal tuxumlar soni 2018 yildagi dastlabki material (F₁) ga nisbatan F₂, F₃ avlodlarida pasayishi kuzatildi. Biroq, qurtlarning hayotchanligini va kapalaklarning pushtdorligini oshirish uchun maqsadli intensiv tanlov ishlarini olib borish natijasida F₄-avlodidan boshlab, sekin astalik bilan normal urug‘lar soni ko‘tarilib borib, so‘ngi 2023 yilga kelib esa F₆-avlodda keskin ko‘tarilish holati kuzatildi. Quymadagi tuxumlar massasi va 1 dona tuxum og‘irligi kabi ko‘rsatkichlarida ham shunday vaziyat aniqlandi.

Ipak qurtlarining biologik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan tuxumlarni jonlanish foizi tajribadagi zotlarning (Ipakchi 2 va Ya-120) dastlabki materialida 2018-yil F₁ avlodlarda 96,0-97,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, F₄-avlodlarga kelib esa qurtlar hayotchanligi 88,9-89,3 % gacha tushib ketish holati yuz bergan. Keyingi F₆-avlodga kelib Ipakchi 2 (92,1 %) va Ya-120 (92,7 %) zotlarida bir muncha qurtlar

hayotchanligi ko‘tarilgani kuzatildi. Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarini 2018-2023 yillarda normal urug‘larining jonlanish foizi 2-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarida urug‘larni jonlanish foizi.

Yuqorida keltirilgan 2-rasmdan ham natijalarni ko‘rishimiz mumkinki, dastlabki yillarda sovuq induksiya ta‘sir ettirilmagan vaqlarda ikkala zotlarda ham urug‘larni jonlanishi normal 96,0-97,0 foizlarda bo‘lgan. Yillar davomida induksiyani ta‘siri ostida 2021 yilga kelib urug‘larning jonlanishi 88,9-89,3 foizgacha tushib ketish holati kuzatilgan. Lekin, doimiy intensiv seleksiya ishlarini olib borilishi natijasida so‘nggi yillarga kelib urug‘larni jonlanish foizi ortib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jonlanib chiqqan qurtlarni oddiy belgilangan agrotexnik tartibda parvarishlash ishlari olib borildi va IV-yoshning 1 kunida sovuq induksiya ta‘sir ettirilib, qurtlar sun‘iy yo‘l bilan kasallantirildi. Parvarishlash davrida barcha oilalar sovuq induksiyaga turlicha javob reaksiyalarini namoyon etdi. 3-jadvalda 2018-2023 yillar oralig‘ida zotlar oilalarining hayotchanlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

Sovuq induksiya ta‘siri ostida Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarida biologik ko‘rsatkichlarini yillar davomida o‘zgarishi


Zotlar	Yillar	Qurtlar hayotchanligi, %			Qurtlar kasallanishi darajasi, %		
		$\bar{X} \pm S \bar{x}$	C_v	Pd	$\bar{X} \pm S \bar{x}$	C_v	Pd
1	2	3	4	5	6	7	8
Tajriba							
Ipakchi 2	2018	79,9±3,30	5,5	0,716	19,9±5,12	15,7	0,716
Ya-120		80,0±4,20	6,3	0,868	17,4±4,20	15,5	0,850
Ipakchi 2	2019	72,8±0,3	3,5	0,898	20,2±0,6	18,7	0,884
Ya-120		74,7±0,5	4,0	0,637	21,3±0,5	16,7	0,999

3-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7	8
Ipakchi 2	2020	70,8±0,9	6,0	0,750	14,9±2,1	13,2	0,591
Ya-120		71,9±0,3	9,8	0,850	17,5±1,2	15,1	0,806
Ipakchi 2	2021	83,6±0,3	4,6	0,993	10,4±0,3	13,4	0,992
Ya-120		83,0±0,9	4,0	0,485	12,4±0,4	8,9	0,868
Ipakchi 2	2022	84,1±0,4	6,1	0,830	11,0±0,5	10,2	0,999
Ya-120		85,2±0,5	3,0	0,992	10,8±0,8	11,0	0,910
Ipakchi 2	2023	87,4±0,7	5,8	0,910	8,2±0,9	8,7	0,780
Ya-120		85,1±0,7	5,4	0,780	8,8±0,5	9,5	0,806
Qiyoslovchi							
Ipakchi 2	2023	91,7±0,7	2,4		3,8±0,5	11,1	
Ya-120		92,4±1,9	2,8		2,9±0,6	9,8	

3-jadvaldagi raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, 6 ta generatsiya davomida parvarishlangan zotlarning hayotchanligi 2018 yilda yadro poliedrozi kasalligini induksiya qilish va inbrid ko‘paytirish natijasida Ipakchi 2 zotida 79,9 % ga, Ya-120 zotida esa 80,0 foizga tushib ketgan. Zotlarda hayotchanlikni eng minimal nuqtasi 2020 yilda 70,8-71,9 foizgacha pasayish holati kuzatilgan. Hayotchanlik va boshqa ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan oilalar ichida tanlov ishlarini olib borilishi natijasida F₄ avlodidan boshlab, Ipakchi 2 zotida sezilarli darajada 83,6 % dan 87,4 foizgacha, Ya-120 zotida ham qurtlarni hayotchanligi 83,0 % dan 85,1 foizga yuqorilab borganligi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan qurtlarning kasallanish darajasiga qaraydigan bo‘lsak, zotlarda hayotchanlik ortib borgani sari kasallanish darajasi yillar kesimida Ipakchi 2 zotida 11,0-9,2 foizga, Ya-120 zotida 12,4-8,8 foizgacha birmuncha kamaygani aniqlandi.

Ipak qurtlari sariq kasalligi bilan asosan katta yoshlarida, ayniqsa pilla o‘rash davrida zararlanadi. Ipak qurtlari sariq kasalligi bilan zararlangandan so‘ng uning yashirin davri 6-8 kun davom etadi. Shu davrga kelib qurtlarning tashqi ko‘rinishida o‘zgarishlar yuzaga kelib, kaslik alomatlari yuzaga chiqadi. Kasallangan qurtlar yolg‘on oyoqlarini kesib ko‘rilganda gemolimfasi xiralashib sutsimon rangga aylangani ko‘rinadi. Kasallangan qurtlardan preparat tayyorlab mikroskop ostida ko‘rilganda olti qirrali kristalsimon poliedrlar ko‘rinadi. Quyidagi 3-rasmda 2018-2023 yillar oralig‘ida oilalar ichida tanlov ishlarining olib borilishi natijasida kasallangan qurtlarning ulushi kamayib borgani keltirilgan.



5-rasm. Ipakchi 2 va Ya-120 zotlari bo‘yicha qurtlarni kasallanish darajasi (2018-2023 yy.).

3-rasmda keltirilgan 6 yillik ma’lumotlarga qaraganda, zotlarning kasallanish darajasining eng yuqori nuqtasi 2019 yilga (20,2-21,3 %) to‘g‘ri keladi. Tadqiqotlarimizni keyingi yillariga kelib, kasallanish foizi birmuncha kamaygani va 2023 yilda Ipakchi 2 zotida 8,2 % ga hamda Ya-120 zotida esa 8,8 foizni tashkil etdi. Qiyoslovchi variantlarda 3,8-2,9 % oralig‘ida kasallanish yuz bergan.

Tut ipak qurtining turli kasalliklarga chidamliligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar, qurtlarning rivojlanish davridagi kasallangan qurtlar va ularning hayotchanlik foizlari hisoblanadi. Ammo, seleksion materialning chidamliligini baholashda, asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan ipak mahsuldorlik belgilari ham katta ahamiyatga ega.

Odatda, ipak qurti pilla o‘ray boshlaganidan 4 sutka o‘tgach g‘umbakka aylana boshlaydi. Shu kunlar oralig‘ida g‘umbakning po‘sti nihoyatda yupqa bo‘lib, pillaga tegilgan vaqtda darhol terisi shikastlanishi mumkin. Shuni nazarda tutgan holda, yalpi pilla o‘rash jarayoni boshlanganidan keyin 7-8-kunlari pillalarni terish ishlari amalga oshiriladi. Pilla terish vaqtida dastalar so‘kchakdan quyidagi tartibda: dast avval so‘kchakning pastki, o‘rta va yuqori qismidan olinadi. Har qaysi dastalardan avvalo nobud bo‘lgan qurtlar va qorapachoq pillalar terib tashlanadi. Olib borilayotkan tadqiqotlarning maqsadi, sinovdan o‘tayotgan zotlarning kasallikka chidamli oilalarini ajratib olish va ipakchanlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

O‘tkazilayotgan tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri, sariq kasalligiga chidamli bo‘lgan genotiplarni tanlab olishga qaratilgan. Shuning uchun kasallikka chidamli oilalarni aniq baholash maqsadida, olingan barcha quymalar kapalaklari alohida “Kapalaklarni ommaviy mikroskopik tahlil qilish” usuli bo‘yicha mikroskopik tekshiruvdan o‘tkazildi.


Kapalaklarni ommaviy mikroskopik tahlil qilish, sogʻlom ipak qurti tuxumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi, masʼuliyatli va asosiy bosqichlardan biridir. Bu bosqichni toʻgʻri va aniq oʻtkazish, ipak qurtini sogʻlom tuxumlarini olishda, kasallikka qarshi kurashdagi asosiy profilaktik tadbir hisoblanadi. Tuxum qoʻygan barcha kapalaklar mikroskopik tekshiruvdan oʻtkazildi. 4-jadvalda tadqiq etilayotgan materialning mikroskop tahlil asosida, aniqlangan kasalliklar haqidagi maʼlumotlar keltirilgan.

4-jadval


Ipakchi 2 va Ya-120 zotlari kapalaklarining mikroskopik tekshiruv natijalari (2021-2023 yy.)

Zotlar nomi	Avlodlar	Mikrotahlilga olingan kapalaklar soni, dona	Aniqlangan kasalliklar				Kasallangan kapalaklar ulushi, %	
			yadro poliedrozi		bakteriya		$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Pd
			dona	%	dona	%		
Tajriba								
Ipakchi 2	F ₄	4180	1517	36,3	217	5,2	41,5±2,0	0,991
	F ₅	4200	1281	30,5	227	5,4	35,6±3,1	0,977
	F ₆	4360	1097	25,4	232	4,5	29,9±2,4	0,988
Qiyoslovchi								
Ipakchi 2	F ₄	1145	0,0	0,0	37	3,3	3,3±0,7	
	F ₅	1135	0,0	0,0	33	2,9	2,9±0,4	
	F ₆	1155	0,0	0,0	49	4,3	4,3±0,6	
Tajriba								
Ya-120	F ₄	4140	1618	39,1	140	3,4	42,5±1,1	0,997
	F ₅	4260	1478	34,7	132	3,1	37,8±0,9	0,985
	F ₆	4240	1221	28,4	157	3,7	32,1±0,7	0,988
Qiyoslovchi								
Ya-120	F ₄	1155	0,0	0,0	19	1,7	1,7±0,7	
	F ₅	1140	0,0	0,0	29	2,6	2,6±1,1	
	F ₆	1165	0,0	0,0	14	1,2	1,2±0,8	

Yuqorida keltirilgan 4-jadvalda kapalaklarni mikrotahlil natijasida yadro poliedrozi kasalligi bilan kasallangan kapalaklarni ulushi aniqlandi. Sunʼiy yoʻl, yaʼni ipak qurtlariga sovuq harorat bilan induksiya qilish orqali yadro poliedrozi kasalligi qoʻzgʻatilganidan soʻng, kapalaklik davrigacha eng chidamli va kasallanish darajasi kam boʻlgan oilalar yetib keldi. Bunda chidamsiz oilalarning qurtlari nobud boʻlishi holatlari kuzatildi. Tajriba variantlarida Ipakchi 2 zotida kapalaklarni yadro poliedrozi bilan kasallanish darajasi 2021 yilda 36,3 %, 2023 yilda 25,4 foizgacha kamayganligini koʻrish mumkin, shuningdek bakteriyalar bilan zararlanishi oʻrtacha 5,0 % ni tashkil etdi. Qiyoslovchi variantda esa yadro poliedrozi bilan zararlanish holati kuzatilmadi va bakteriyalar bilan kasallanish oʻrtacha 3,5 % ni tashkil etdi. Tajribadagi Ya-120 zotida sariq kasalligi bilan kasallanish darajasi 39,1 % dan 28,4 % foizgacha tushib borgan, bakterial kasallanish esa 3,4 % ga yetib, qiyoslovchidagi bakteriyalar bilan kasallanish darajasi 1,8 % ga teng boʻldi.




6-rasm. Kapalaklarni mikroskopik tekshiruv jarayoni.



7-rasm. Kasallangan kapalaklardagi olti qirrali poliedrlarni mikroskopik ko‘rinishi.

Yuqorida keltirilgan 4-jadvalda ko‘rinib turibdiki, tajriba variantidagi ikkala zotlar ustida doimiy ravishda seleksion tanlov ishlarini olib borilishi natijasida yildan yilga kasallangan kapalaklarning ulushi kamayib borishini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, sog‘lom kapalaklar ulushi ortib borganligi kuzatildi. Buni isboti tariqasida quyidagi 4-rasmda yillar kesimida sog‘lom kapalaklarning ulushi ortib borganligini ko‘rishimiz mumkin.



8-rasm. Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarining sog‘lom kapalaklari ulushi (%).

4-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, sog‘lom kapalaklarning sonini ko‘payishi seleksiya tanlov ishlarini to‘g‘ri va aniq olib borilganligidan dalolat beradi. Yillar kesimida qaraydigan bo‘lsak, Ipakchi 2 zotida 2021 yildan (56,6 %) 2023 yilga (68,1 %) qarab sog‘lom kapalaklar miqdori ortib borgan. Tajribadagi Ya-120 zotida ham xuddi shunday 53,5 % dan 66,8 foizgacha ortib borish holati kuzatilgan.

Tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi

Tajribalarni olib borishdan ko‘zlangan maqsadlaridan biri bu iqtisodiy samaradorlikka erishish hisoblanadi. Ipak qurti ozuqasiga qo‘shimcha sifatida qo‘shib, berilgan samaradorligi yuqori bo‘lgan ‘‘Hosildor’’ 0,05 foizli variantimizni ishlab chiqarish sharoitida Farg‘ona viloyati ‘‘Farg‘ona Pilla Naslchilik’’ MChJ da (2021, 2023 yy.) va Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Bog‘iston MFY qarashli kasanachi M.Turg‘unov

xonadonida olib borildi (2022 y). O'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida bir quti qurtdan 5,7-8,3 kg gacha qo'shimcha tirik pilla olishga erishildi. Sof foyda esa 568302-802219,8 so'mni tashkil etib, rentabellik 18,8-30,1 % gacha ko'tarildi.

XULOSA

Bajarilgan dissertatsiya ishi yuzasidan olingan natijalarga asosan quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Tajribalarda Hosildor va Omad plyus stimulyatorining 0,01, 0,03, 0,05, 0,07 % eritmali variantlari ipak qurtlarining biologik, pilla mahsuldorlik va texnologik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi, hamda eng optimal konsentratsiyasi tanlab olindi.

2. Hosildor stimulyatori ta'sirida ipak qurtlarining hayotchanligi xorij duragayida 74,5-82,5 %, mahalliy duragay qurtlarida 72,7-80,3 % oralig'idagi natijalar kuzatildi. Omad plyus stimulyatorida esa 68,7-74,4 % va 65,7-71,2 % tashkil etib, qiyoslovchiga nisbatan birmuncha yuqori bo'lgani aniqlandi. Bu esa o'z navbatida vositani ijobiy ta'siridan dalolat beradi.

3. Kasallanish darajasiga qaraydigan bo'lsak, Hosildor va Omad plyus stimulyatorlarida parvarishlangan duragaylar kasallanish darajasi qiyoslovchi bilan taqqoslaganda (10,1 %) kamaygani kuzatildi.

4. Eng asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ipakchanlik Hosildor stimulyatori bilan oziqlangan xorij va mahalliy duragaylar qurtlarida qiyoslovchiga nisbatan 1,0-3,0 % va 1,3-2,8 % ga ustunlik qilishdi. Omad plyus variantida esa qiyoslovchi bilan taqqoslaganda xorij duragayida 0,7-1,6 va mahalliyda 1,2-1,8 % farq aniqlandi.

5. Zotlarni sovuq induksiya ta'sirida 6 yillik o'rtacha ko'rsatkichi bo'yicha Ipakchi 2 tajriba variantida fiziologik nosog'lom urug'larning ulushi 8,1 foizdan 4,8 foizga, Ya-120 zotida esa 8,8 % dan 5,6 % gacha kamayib borgan bo'lsa, tajriba variantlarida ushbu ko'rsatkich biroz pastroq 3,0-2,8 % ni tashkil etdi.

6. Yadro poliedrozi kasalligiga chidamli oilalarni reproduktiv ko'rsatkichlari: tajribadagi Ipakchi 2 va Ya-120 zotlarida normal urug'lar soni 637-628 dona, qiyoslovchi variantlarida 683-677 donani tashkil etdi. 1 dona urug'lar vazni bo'yicha ham taqqoslash ishlari tajribada 0,527-0,521 mg bo'lsa, qiyoslovchida esa 0,588-0,546 mg bo'lgani ma'lum bo'ldi.

7. Ipak qurti rivojlanishining barcha bosqichlarida eng yaxshi oilalarni intensiv tanlab olish bilan bir vaqtda 6 ta inbrid avlodlar yadro poliedrozining induksiya qilish natijasida F₁, F₂, F₃ avlodlarida Ipakchi 2 zotida qurtlarni hayotchanligi 79,9 % dan 70,8 % gacha va Ya-120 zotida 80,0 % dan 71,9 % gacha pasayishi kuzatildi, F₄, F₅, F₆ avlodlariga kelib, Ipakchi 2 zotida 83,6 % dan 87,4 % gacha, Ya-120 zotlarida 83,0 % dan 85,1% gacha ko'tarilishi isbotlandi.

8. Ipak qurtlariga past harorat ta'sirida zotlar o'ziga xos pilla vaznini yillar davomida pasayib borganligi (Ipakchi 2 zotida 1,49-1,63 g va Ya-120 zotida 1,45-1,58 g) kuzatildi, oddiy usulda parvarishlangan qiyoslovchi variantlarida esa bu ko'rsatkich yuqori (1,72-1,56 g) bo'lgani aniqlandi.

9. O'tkazilgan ilmiy izlanishlarda natijasida bir quti qurtdan 5,7-8,3 kg gacha qo'shimcha tirik pilla olishga erishildi. Sof foyda esa 495800-802219,8 so'mni tashkil etib, rentabellik 18,8-30,1 % gacha ko'tarildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.36/30.01.2020.Qx.103.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ШЕЛКОВОДСТВА**

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ШЕЛКОВОДСТВА

БЕГМАТОВ ТОИР МУХТОРОВИЧ

**НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ СЕЛЕКЦИОННЫХ И
ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРОТИВ ЯДЕРНОГО
ПОЛИЭДРОЗА ТУТОВОГО ШЕЛКОПРЯДА *BOMBYX MORI L.***

06.02.04 - Шелководство

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2023.3. PhD/()x1229

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Научно-исследовательском институте шелководства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу "www.silkscience.uz" на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:	Исматуллаева Дилорам Адилевна доктор сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	Данияров Умирзак Тухтамуратович доктор сельскохозяйственных наук, профессор Ялганшев Хуршид Абдуганиевич доктора философии по сельскохозяйственным наукам (PhD)
Ведущая организация:	Научно-исследовательский институт животноводства и птицеводства

Защита диссертации состоится «5» 06 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 36/30.01.2020 Qx 103 01 по присуждению ученых степеней доктора философии (PhD) при Научно-исследовательском институте шелководства (Адрес: 100140, Ташкент, Шайхонтахурский район ул. Ипакчи, дом 1. Тел: (99871) 249-83-56; факс: (99871) 249-82-13, e-mail: uzniish@mail.ru Актовый зал, 3-этаж, Административное здание Научно-исследовательского института шелководства).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института шелководства (зарегистрировано за № 04). Адрес: 100140, 100140, Ташкент, Шайхонтахурский район ул. Ипакчи, дом 1. НИИШ. Тел.: (99871) 249-82-13.

Автореферат диссертации разослан «20» 05 2024 года.

(Реестр протокола рассылки № 2 от «28» 03 2024 года).



Б. У. Насириллаев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

С.Х. Худжаматов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.с.х.н., (PhD) с.н.с.

С.Т. Валиев
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., с.н.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире развитие шелковой отрасли, а также получение качественных коконов и высоких урожаев шелка-сырца, тесно связаны с предотвращением распространения различных болезней тутового шелкопряда. Предотвращение болезней тутового шелкопряда и получение качественных коконов, в основном, зависит от качества приготовленных яиц. По объему заготавливаемых коконов ведущее место в мире занимают Китай (782 тыс. тонн), Индия (225 тыс. тонн) и Республика Узбекистан (25,8 тыс. тонн).¹ В настоящее время в развитых странах, занимающихся производством коконов, проводятся современные поисковые работы в направлении повышения урожайности и улучшения качества выращенных коконов и шелковых продуктов, а также в направлениях изучения болезней тутового шелкопряда на молекулярном уровне и идентификации устойчивых к болезням генов тутового шелкопряда.

